# “ТАЛАБАЛАР ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАРИ” ФАОЛИЯТИ

Тошкент давлат шарқшунослик университетида Иқтидорли ёшларни илмий фаолиятга жалб этиш учун талабаларнинг илмий фаолиятини ташкил этиш ва ривожлантириш, устоз-шогирд тизими асосида ёшларнинг илмий фаолиятга жалб этиш, ёш илмий-педагогик кадрлар заҳирасини тайёрлашга доир ташкилий, услубий масалаларни ҳал этишда кўмаклашиш, талаба ва магистрантларга мақола, курс иши, БМИ ва МДларни ёзиш кўникмаларини шакллантириш мақсадида университет факультетларида “Талабалар илмий жамиятлари” ташкил этилади.

“Талабалар илмий жамиятлари” **мақсади** фаолияти давомида университетда таҳсил олаётган талабалар орасидан энг иқтидорли, истеъдодли, илмий салоҳиятга эга, мустақил ва креатив фикрлайдиган талабаларни излаб топади, уларга тўғри йўналиш кўрсатади, илмий салоҳиятларини намоён қилиш орқали университет илмий салоҳиятини юксалтиришга хизмат қилиш.

“Талабалар илмий жамиятлари” университетнинг ҳар бир факультетида мавжуд бўлади. Факультет ҳузурида “Талабалар илмий жамиятлари” раиси ва котиби фаолият юритади. Бу борада “Талабалар илмий жамиятлари” раиси сифатида 1-магистр ва унинг котиби сифатида бакалавр босқичидан 1 нафар талаба факультет деканлари тавсияси билан номзодлар йиғиб олинади.

“Талабалар илмий жамиятлари” университетдаги барча фан тўгараклари, фан клубларини ўз ичига олган тизим бўлиб, барча фан тўгараклари фаолиятини мониторинг қилади.

Шунингдек “Талабалар илмий жамиятлари” илмий иш олиб бориш ва бошқа шахсий қобилиятларга эга бўлган иқтидорли талабаларни шахсий чуқурлаштирилган ва мақсадли ўқув режалари бўйича ўқитишга тавсия бериш, уларга бундай режалар бўйича ўқишда кўмаклашиш (адабиётлар топиш, замонавий техник воситаларидан фойдаланиш, иш режаларини тузиш, ўқув ва илмий ишларини бажаришда маслаҳатлар бериш, мақола ёзишда кўмаклашиш, маслаҳатчи-устозлар танлаш) каби вазифаларни ҳам амалга оширади.

“Талабалар илмий жамиятлари” университетда бажариладиган инновацион, амалий ва фундаментал лойиҳалар ҳақида маълумотлар беради ҳамда бу лойиҳаларга талабаларни вақтинчалик илмий ижодий жамоа аъзолигига тавсия қилади.

“Талабалар илмий жамиятлари” талабаларнинг турли фанлар бўйича ўтказиладиган олимпиадаларда, кўргазма ва кўрик-танловларда, турли анжуманларда қатнашишларига кўмаклашади.

“Талабалар илмий жамиятлари” мунтазам равишда Республикада ташкил қилинадиган турли кўрик танловлар, “START UP” лойиҳалари, стажировкалар, илмий лойиҳалар ҳақида талабаларга маълумот бериб турадилар.

Талабалар илмий анжуманлари ва семинарларини ташкиллаштиради.

Университетда, факультетлар, кафедралар ҳамда талабалар уйида “Талабалар илмий жамиятлари” кўргазмали стендларини ташкил қилади.

Мутахассислик фанлари профессор-ўқитувчилари билан биргаликда юртимиз тарихи, бой меросимиз, илмий мактаблар ва илғор технологияларга талабаларни жалб этиш мақсадида таниқли соҳа мутахассислари ва Университетда ҳурматга сазовор бўлган устозлар билан турли мавзуларда давра суҳбатлари ва учрашувлар ташкил этади.

“Талабалар илмий жамиятлари” Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги ҳузуридаги “Ёшлар академияси” ва Ўзбекистон Фанлар академияси “Ёш олимлар кенгаши” билан ҳам ҳамкорликда фаолият юритиши кўзда тутилган.

Университет билан илмий ҳамкорлик қилаётган корхона-ташкилотлар, жумладан, бугунги кунда ўз фаолиятини самарали йўлга қўйиган “IT PARK”, va “Технопарк”ларга танишув-саёҳатларни амалга ошириш каби ишлар “Талабалар илмий жамиятлари”нинг асосий вазифаларига киради.

**FAKULTET “TALABALAR ILMIY JAMIYATLARI”NING 2022-2023 YILDA AMALGA OSHIRADIGAN CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| № | Bajarilishi ko‘zda tutilgan ishlar | Bajarilish muddati | Mas’ullar |
|---|---|---|---|
| **I. IQTIDORLI TALABALARNI ILMIY FAOLIYATGA JALB QILISH** | | | |
| 1 | Fajultet bo‘yicha barcha bosqich talabalari orasidan iqtidorli talabalarni aniqlash va “Iqtidorli talabalar bazasi” ro‘yxatini shakllantirish. | 2022 yil sentyabr | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 2 | Fakultet talabalarini “Talabalar ilmiy jamiyatlari” faoliyati bilan tanishtirish. | 2022 yil sentyabr | TIJ raisi va kotibi |
| 3 | Universitetda, fakultetlar va kafedralar hamda talabalar uyida TIJ ko‘rgazmali stendlarini tashkillashtirish | O‘quv yili davomida | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi va kotibi |
| 4 | “Talabalar ilmiy jamiyatlari” universitetda bajariladigan innovatsion, amaliy va fundamental loyihalar haqida ma’lumotlar beradi hamda bu loyihalarga talabalarni vaqtinchalik ilmiy ijodiy jamoa a’zoligiga tavsiya qilish | O‘quv yili davomida | Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi va kotibi |
| 5 | “Talabalar ilmiy jamiyatlari” ilmiy ish olib borish va boshqa shaxsiy qobiliyatlarga ega bo‘lgan iqtidorli talabalarni o‘qishida ko‘maklashish (adabiyotlar topish, zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish, ish rejalarini tuzish, o‘quv va ilmiy ishlarini bajarishda maslahatlar berish, maqola yozishda ko‘maklashish, maslahatchi-ustozlar tanlash) | 2022 yil oktabr | Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi va kotibi |
| **II. STARTAP VA ILMIY TANLOVLARLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH** | | | |
| 4 | Iqtidorli talabalarni Respublika va xalqaro miqyosida o’tkaziladigan turli xil maqsadli tanlovlarda ishtiroki uchun Universitet ichki tanlovlarini tashkil etish, Universitet ilmiy kengashiga nomzodlar tavsiya etish | 2023 yil fevral | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 5 | Bakalavr, magistr talabalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari hamda Universitetda joriy etilgan Ogahiy va Rektor stipendiyalariga Universitet miqyosida tanlov o‘tkazish va ularni saralash | 2023 yil may-iyun | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 6 | Eng yaxshi bakalavrlar bitiruv malakaviy ishi va magistr dissertatsiyasi tanlovini tashkil etish | 2023 yil iyun | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7 | | | etish bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 7 | "Talabalar ilmiy jamiyatlari" muntazam ravishda Respublikada tashkil qilinadigan turli ko'rik tanlovlar, "START UP" loyihalari, stajirovkalar, ilmiy loyihalar haqida talabalarga ma'lumot berib turish va loyihalarni ko'rik tanlovga yuborish. | | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| **III. ILMIY KONFERENSIYA, FORUM VA SEMINARLAR TASHKIL QILISH** | | | |
| 7 | Iqtidorli talabalarni Respublika va xalqaro fan olimpiadalaridagi ishtiroki uchun Universitet ichki tanlovlarini tashkil etish: fakultetlararo va Universitet miqyosida. | 2022 yil noyabr-dekabr | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 8 | Shoislom Shomuhamedov nomidagi "Yosh sharqshunoslarning an'anaviy Forumi"ga maqolalar yig'ish | Belgilan-gan muddatda | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 9 | Talabalar ilmiy anjumanlari va seminarlarini tashkillashtirish | Belgilan-gan muddatda | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| **IV. SOHA MUTAXASSISLARI BILAN DAVRA SUHBATLARI VA UCHRASHUVLAR TASHKIL ETISH** | | | |
| 10 | Prezident asarlari, nutqlari va ma'ruzalari asosida davra suhbatlarini tashkil etish hamda Oliy Majlis sessiyasi masalalari to'g'risida talabalar bilan uchrashuvlar o'tkazish | O'quv yili davomida | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 11 | Mutaxassislik fanlari professor-o'qituvchilari bilan birgalikda yurtimiz tarixi, boy merosimiz, ilmiy maktablar va ilg'or texnologiyalarga talabalarni jalb etish maqsadida taniqli soha mutaxassislari va Universitetda hurmatga sazovor bo'lgan ustozlar bilan turli mavzularda davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etish | O'quv yili davomida | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 12 | Fidoyi professor-o'qituvchilarlarning talabalar bilan ishlashdagi faolliklarini keng targ'ib etish | O'quv yili davomida | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 13 | O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlari etakchi olimlari bilan uchrashuvlar va davra suhbatlari uyushtirish. | O‘quv yili davomida | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 14 | “Talabalar ilmiy jamiyatlari” O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi “Yoshlar akademiyasi” va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi “Yosh olimlar kengashi” bilan hamkorlikda faoliyat yuritish. | O‘quv yili davomida | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 15 | Universitet bilan ilmiy hamkorlik qilayotgan korxona-tashkilotlarga tanishuv-sayohatlar uyushtirish. | O‘quv yili davomida | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |
| 16 | “IT PARK” va “Texnopark”larga tanishuv-sayohatlarni amalga oshirish. | O‘quv yili davomida | Iqtdorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, TIJ raisi |